I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023- yil 1- yanvar holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 26 437 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 25 179 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,2 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (22,4 foiz), Karmana (15,5 foiz), Qiziltepa (13,1 foiz) va Xatirchi (11,8 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**26 437**	**100,0**	**25 179**	**100,0**
Navoiy sh.	5 629	22,4	5 589	22,2
Zarafshon sh.	1 917	7,3	1 803	7,2
G‘ozg‘on sh.	379	1,4	352	1,4
Konimex t.	1 115	4,2	1 043	4,1
Qiziltepa t.	3 463	13,1	3 312	13,2
Navbahor t.	2 768	10,5	2 631	10,4
Karmana t.	4 093	15,5	3 945	15,7
Nurota t.	1 845	7,0	1 766	7,0
Tomdi t.	721	2,7	654	2,6
Uchquduq t.	1 086	4,1	1076	4,3
Xatirchi t.	3 121	11,8	3 008	11,9

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,5 foiz), sanoat (15,9 foiz), qurilish (7,0 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,2 foiz) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**26 437**	**100,0**	**25 179**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 235	12,2	3 098	12,3
sanoat	4 208	15,9	3 985	15,9
qurilish	1 846	7,0	1 771	7,0
savdo	9 116	34,5	8 685	34,5
tashish va saqlash	846	3,2	816	3,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 622	6,1	1 540	6,1
axborot va aloqa	319	1,2	302	1,2
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	378	1,4	370	1,5
boshqa turlari	4 867	18,4	4 612	18,3

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

12,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

15,9 %

Sanoat

7,0 %

Qurilish

34,5 %

Savdo

3,2 %

Tashish va saqlash

6,1 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,2 %

Axborot va aloqa

1,5%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

18,3 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 95,2 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 4,8 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2023- yil 1- yanvar holatiga 22 951 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 5 991 ta, oilaviy korxonalar – 4 157 ta, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar – 12 567 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 20 ta, unitar korxona – 47 tani va 169 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2022- yil yanvar- dekabr oylarida jami 3 464 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 89,4 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (715 ta), Karmana (529 ta), Qiziltepa (568 ta), Xatirchi (562 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa Tomdi (181 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (102 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 30,7 foiz, sanoatda 23,6 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 16,9 foiz qurilish va 4,0 foizni tashkil etdi.

2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 22 844 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11.6 foizga oshdi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 954 tasi (jami sub‘ektlarning 21,7 foizi) Navoiy shahri, 3 671 tasi (16,1 foizi) Karmana, 3 071 tasi (13,4 foizi) Qiziltepa, 2 708 tasi (11,9 foizi) Xatirchi hamda 2 444 tasi (10,7 foizi), Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 573 tasi (2,5 foizi) Tomdi, 904 tasi (4,0 foizi) Konimex tumanlari, 318 tasi (1,4 foizi) G‘ozg‘on shahar hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yuritmayotgan*	*2022- yil yanvar-iyul oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2022- yil yanvar- iyul oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**23 997**	**22 844**	**1 153**	**4 323**	**1 576**	**22,1**
Navoiy sh.	5 250	4 954	296	666	252	32,9
Zarafshon sh.	1 768	1 663	105	386	175	19,4
G‘ozg‘on sh.	344	318	26	99	14	35,7
Karmana t.	3 814	3 671	143	515	155	27,8
Konimex t.	973	904	69	250	91	24,6
Qiziltepa t.	3 209	3 071	138	556	179	19,6
Navbahor t.	2 574	2 444	130	434	112	20,9
Nurota t.	1 655	1 581	74	313	48	18,2
Tomdi t.	634	573	61	174	52	37,0
Uchquduq t.	963	957	6	376	207	24,9
Xatirchi t.	2 813	2 708	105	554	291	13,2

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- yanvar holatiga		*2023- yil 1- yanvar holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**20 472**	**100,0**	**22 844**	**100,0**
Navoiy sh.	4 582	22,4	4 954	21,7
Zarafshon sh.	1 513	7,4	1 663	7,3
G‘ozg‘on sh.	240	1,2	318	1,4
Konimex t.	775	3,8	904	4,0

	2022- yil 1- yanvar holatiga		2023- yil 1- yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	2 749	13,4	3 071	13,4
Navbahor t.	2 151	10,5	2 444	10,7
Karmana t.	3 326	16,3	3 671	16,0
Nurota t.	1 367	6,7	1 581	6,9
Tomdi t.	478	2,3	573	2,5
Uchquduq t.	787	3,8	957	4,2
Xatirchi t.	2 504	12,2	2 708	11,9

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 22 844 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 8 668 tasi (37,9 foizi) – savdoda, 3 957 tasi (17,3 foizi) - sanoatda, 3 060 tasi (13,4 foizi) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 761 tasi (7,7 foizi) - qurilishda, 1 535 tasi (6,7 foizi) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 807 tasi (3,5 foizi) - tashish va saqlashda, 298 tasi (1,5 foizi) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 294 tasi (1,3 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 464 tasi (10,8 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- yanvar holatiga ko‘ra) birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 1,2 foizni (296 ta), Navbahor tumanida esa ro‘yxatdan o‘tganlarning jami sonida 0,5 foizni (130 ta), Karmana 0,6 foizni (143 ta), Xatirchi 0,4 foizni (105 ta), Konimex 0,3 foizni (69 ta) va Tomdi tumani 0,3 foizni (61 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1 576 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan sanoat 292 ta (24,6 foizi), savdo 463 ta (39,8 foizi), qurilish 51 ta (5,8 foizi) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 111 ta (9,8 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 279 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 160 tasi qo‘shma korxonalar, 119 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- yanvar holatiga)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**279**	**160**	**119**
Navoiy sh.	86	59	27
Zarafshon sh.	18	9	9
G‘ozg‘on sh.	3	2	1
Konimex t.	10	5	5
Qiziltepa t.	18	9	9

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Navbahor t.	11	6	5
Karmana t.	81	43	38
Nurota t.	25	15	10
Tomdi t.	7	6	1
Uchquduq t.	9	2	7
Xatirchi t.	11	4	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 86 ta (30,8 foiz) va Karmana 81 ta (29,0 foiz) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahrida 3 ta (1,1 foiz), Tomdi tumanida 7 ta (2,5 foiz), Uchquduq tumanida 9 ta (3,2 foiz), Konimex tumanlarida 10 tadan (3,6 foiz), Xatirchi 11 tadan (3,9 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	**279**	**100,0**
Navoiy sh.	86	30,8
Zarafshon sh.	18	6,5
G‘ozg‘on sh.	3	1,1
Konimex t.	10	3,6
Qiziltepa t.	18	6,5
Navbahor t.	11	3,9
Karmana t.	81	29,0
Nurota t.	25	9,0
Tomdi t.	7	2,5
Uchquduq t.	9	3,2
Xatirchi t.	11	3,9

Faoliyat ko‘rsatayotgan 279 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 153 tasi (53,8 foiz) sanoat, 42 tasi (15,1 foiz) savdo, 32 tasi (11,5 foiz) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 19 tasi (6,8 foiz) qurilishda, 5 tasi (1,8 foiz) tashish va saqlash, 3 tasi (1,1 foiz) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 3 tasi (1,1 foiz) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 2 tasi (0,7 foiz) axborot va aloqa, 23 tasi (8,1 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

	birlik	***Jamiga nisbatan, % da***
Jami	**279**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	150	53,8
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	32	11,5
qurilish	19	6,8
savdo	42	15,1
tashish va saqlash	5	1,8
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3	1,1
Axborot va aloqa	2	0,7
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3	1,1
boshqa turlari	23	8,1

2022- yil yanvar- dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 39 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi-8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-5 ta, Eron Islom Respublikasi - 4 ta, Qozog`iston Respublikasi Turkiya Respublikasi 2 ta, Avstraliya -1 ta, Kipr Respublikasi - 1 ta, va boshqalar-16 ta.

39 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy (13 ta) shahar, Karmana (13 ta) tuman, Konimex (3 ta) tuman, Nurota tuman va G‘ozg‘on , Zarafshon shahrilairda (2 ta), Xatirchi va Uchquduq (1) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**39**	**100,0**
Navoiy sh.	13	33,4
Zarafshon sh.	2	5,1
G‘ozg‘on sh.	2	5,1
Konimex t.	3	7,7
Qiziltepa t.	2	5,1
Navbahor t.	-	-
Karmana t.	13	33,3
Nurota t.	2	5,1
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	1	2,6
Xatirchi t.	1	2,6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 9 ta, qurilishda 2 ta va boshqa tarmoqlarda 8 tadan.

2023- yil 1- yanvar holatiga 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (3 ta), Karmana (2 ta), Tomdi tumani (1 ta), Qiziltepa tumani (1 tadan) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga 4 398 tani tashkil etib, ulardan 4 157 tasi yoki 94,5 foizi faoliyat yuritmoqda.

2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 foizga yoki 147 taga ko‘paydi.